



O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK FAOLIYATI JARAYONIDA KASBIY ETIKASINI ANIQLASH KOMPONENTLARI

Dushayeva Nazokat Sharofiddinova,

Toshkent viloyati pedagogik mahorat markazi Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri.

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18i.1605>

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 15-aprel 2026-yil

Tasdiqlandi: 17-aprel 2026-yil

Jurnal soni: 18-A

Maqola raqami: 45

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

pedagogik etika, kasbiy etika, o'qituvchining pedagogik faoliyati, etikaning shakllanish darajasi, funksional komponentlar

ANNOTATSIIYA/ АННОТАЦИЯ

Maqolada o'qituvchilarning pedagogik-etik faoliyati jarayonida kasbiy etikaning shakllanish darajalarini aniqlashning funksional komponentlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda kasbiy etikaning shakllanishi o'qituvchining axloqiy ong, pedagogik xulq-atvor, empatiya, kasbiy mas'uliyat hamda o'z-o'zini rivojlantirish kabi asosiy komponentlar orqali bosqichma-bosqich rivojlanishi asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada kasbiy etikaning boshlang'ich, o'rta va yuqori darajalari tavsiflanib, har bir bosqichda o'qituvchining pedagogik faoliyatidagi axloqiy qaror qabul qilish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. O'qituvchining kasbiy etikasi nafaqat nazariy bilimlar tizimi, balki amaliy pedagogik faoliyatda namoyon bo'ladigan muhim sifat ekanligi ta'kidlanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kasbiy etikaning shakllanishi ta'lim muassasasi muhiti, jamiyat talablari va o'qituvchining individual rivojlanishiga bevosita bog'liq bo'lib, bu jarayonni to'g'ri tashkil etish ta'lim sifatini oshirish va o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, maqolada kasbiy etikaning shakllanish darajalarini aniqlashda kuzatish, pedagogik tahlil, qiyosiy yondashuv va diagnostik baholash metodlaridan foydalanish zarurligi asoslab beriladi. Ushbu metodlar o'qituvchining real pedagogik faoliyatidagi axloqiy qarorlarini obyektiv baholash imkonini yaratadi. Tadqiqotda ilgari surilgan funksional komponentlar tizimi o'qituvchilarning kasbiy etik kompetensiyasini rivojlantirishda diagnostik model sifatida qo'llanishi mumkinligi bilan ahamiyatlidir. Bu yondashuv nafaqat mavjud holatni baholash, balki kelgusida kasbiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilashga ham xizmat qiladi. Bundan tashqari, maqolada ilgari surilgan qarashlar zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining raqamli muhit sharoitida ham axloqiy me'yorlarni saqlash va rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 15 april 2026

Approved: 17 april 2026

Volume: 18-A

Paper number: 45

KEYWORDS

pedagogical ethics, professional ethics, teacher's pedagogical activity, level of ethics formation, functional components

ANNOTATION

The article scientifically analyzes the functional components of determining the levels of formation of professional ethics in the process of pedagogical and ethical activity of teachers. The study substantiates the gradual development of the formation of professional ethics through the main components of the teacher's moral consciousness, pedagogical behavior, empathy, professional responsibility and self-development. The article also describes the primary, secondary and higher levels of professional ethics, highlighting the specific features of the teacher's ethical decision-making process in pedagogical activity at each stage. It is emphasized that the teacher's professional ethics is not only a system of theoretical knowledge, but also an important quality that is manifested in practical pedagogical activity. According to the results of the study, the formation of professional ethics is directly related to the environment of the educational institution, the requirements of society and the individual development of the teacher, and the correct organization of this process serves to improve the quality of education and strengthen the spiritual and moral education of students. The article also justifies the need to use observation, pedagogical analysis, comparative approach and diagnostic assessment methods to determine the levels of formation of professional ethics. These methods allow for an objective assessment of the teacher's ethical decisions in real pedagogical activity. The system of functional components put forward in the study is significant in that it can be used as a diagnostic model in the development of teachers' professional ethical competence. This approach serves not only to assess the current situation, but also to determine the directions of future professional development. In addition, the views put forward in the article indicate the need to maintain and develop ethical standards in the modern education system, even in the digital environment.

Kirish. Bugungi kunda jamiyatimizda barkamol sog'lom avlodni shakllantirishga har doimgidan ham jiddiy jiddiy ahamiyat berilmoqda. O'qituvchining kasbiy etikasi ta'lim tizimining rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o'quvchilarni ma'naviy, axloqiy, psixologik jihatdan shakllantiruvchi shaxsdir. Kasbiy etika o'qituvchining faqat kasbiy faoliyatidagi me'yorlar va qoidalardan iborat bo'lib qolmay, balki uning o'ziga bo'lgan mas'uliyatini, axloqiy yondashuvlarini va muloqot madaniyatini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, o'qituvchilarning pedagogik-etik faoliyati jarayonida kasbiy etikaning shakllanish darajasini aniqlashning funksional komponentlarini o'rganish ta'limning sifatini oshirish uchun muhimdir.

Axborot texnologiyalari davrida pedagogika fani, uning ta'lim-tarbiya sohasidagi yutuqlari, kamchiliklari, jumladan xususiyatlari, zamon talablariga mos keladimi? Pedagogik etikani rivojlanish komponentlari Yangi O'zbekiston rivojlanish strategiyalari talablariga javob bera oladimi? Zamonaviy ta'lim-tarbiya chet el tajribalaridan foydalanish holati va xususiyatlari qanday? Pedagogik-etik tarbiya xaqida, uning mohiyati, maqsadi va vazifalari nimalardan iborat bo'lishi kerakligi haqida Prezident Sh.Mirziyoyev o'zining ilk nutqida, ya'ni sudyalari, sud xodimlari bilan muloqatda juda aniq lo'nda qilib tushuntirib qo'ydi.

Adabiyotlar tahlili. Pedagogik etika va o'qituvchining kasbiy madaniyati masalasi zamonaviy pedagogika fanining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar o'qituvchi faoliyatining nafaqat bilim berish jarayoni, balki axloqiy, psixologik va ijtimoiy mas'uliyat bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Adabiyotlar tahlili shuni anglatadi, kasbiy etika o'qituvchining shaxsiy fazilatlarini va pedagogik kompetensiyasini integratsiyasi asosida shakllanadi.

V.A. Slastenin pedagogik faoliyatni ko'p qirrali jarayon sifatida ko'rib chiqadi va unda kasbiy etika markaziy o'rin egallashini ta'kidlaydi. Uning fikricha, o'qituvchi shaxsining axloqiy yo'nalganligi ta'lim jarayonining sifatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Slastenin pedagogik etika o'qituvchining ichki qadriyatlar tizimi orqali namoyon bo'lishini qayd etadi va bu jarayon kasbiy refleksiya bilan uzviy bog'liqligini asoslaydi [3, 112-b].

I.P. Podlasiy pedagogik etikaning amaliy jihatlariga e'tibor qaratib, o'qituvchi xulq-atvori o'quvchi shaxsining shakllanishida bevosita model vazifasini bajarishini ta'kidlaydi. Uning yondashuvida kasbiy etika faqat nazariy tushuncha emas, balki kundalik pedagogik faoliyatda namoyon bo'ladigan xulqiy me'yorlar tizimi sifatida talqin etiladi. U o'qituvchining

adolat, xolislik va mas'uliyat kabi sifatleri ta'lim jarayonining barqarorligini ta'minlashini asoslaydi [4, 85-b].

I.A. Zimnyaya pedagogik psixologiya nuqtai nazaridan kasbiy etikaning shakllanishini shaxsning psixologik rivojlanishi bilan bog'laydi. Uning tadqiqotlarida empatiya, kommunikativ kompetensiya va refleksiya o'qituvchining axloqiy qaror qabul qilishida asosiy rol o'ynashi ko'rsatilgan. Zimnyaya kasbiy etika rivojlanishi o'qituvchining o'z-o'zini anglash jarayoni bilan chambarchas bog'liq ekanligini ta'kidlaydi [3, 74-b].

Mahalliy olimlardan B. Xodjeyev pedagogik etika va kasbiy madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni chuqur tahlil qiladi. Uning fikricha, o'qituvchining kasbiy etikasi uning ta'lim jarayonidagi barcha qarorlarida namoyon bo'ladi va bu jarayon o'quvchilar bilan muloqot madaniyatini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xodjeyev kasbiy etika shakllanishini bosqichma-bosqich rivojlanadigan jarayon sifatida izohlaydi [1, 56-b].

UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan "Teacher Professional Development Guidelines" hujjatida o'qituvchining kasbiy etikasini rivojlantirishda uzluksiz malaka oshirish, reflektiv amaliyot va axloqiy qaror qabul qilish kompetensiyasining ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Ushbu hujjatga ko'ra, o'qituvchi global ta'lim muhitida ham axloqiy barqarorlikni saqlashi lozim [12, 23-b].

OECD tadqiqotlarida esa samarali o'qituvchi modeli kasbiy mas'uliyat va axloqiy barqarorlik asosida shakllanishi ko'rsatib o'tiladi. Ushbu tashkilot o'qituvchini nafaqat bilim beruvchi, balki jamiyatda axloqiy namuna sifatida faoliyat yurituvchi shaxs sifatida baholaydi. Bu esa kasbiy etikaning ijtimoiy ahamiyatini yanada oshiradi [13, 41-b].

Mahalliy tadqiqotchilar orasida G.B. Abdullayeva o'qituvchi kasbiy etikasini shakllantirishda amaliy faoliyatning o'zini asosiy omil sifatida ko'rsatadi. Uning fikricha, kasbiy etika faqat nazariy bilimlar orqali emas, balki real pedagogik vaziyatlarda shakllanadi va mustahkamlanadi. Shu bois, pedagogik amaliyot jarayoni kasbiy etikaning muhim maydoni hisoblanadi [5, 47-b].

F. Umarova esa pedagogik madaniyat va kasbiy etika integratsiyasi ta'lim samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Uning yondashuvida o'qituvchining kommunikativ madaniyati, xushmuomalaligi va axloqiy pozitsiyasi o'quvchilar bilan ishlash sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [6, 113-b].

Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda A. Normatov kasbiy pedagogik madaniyatni o'qituvchining shaxsiy va professional rivojlanishining ajralmas qismi sifatida ko'rib chiqadi. U kasbiy etika o'qituvchining ichki qadriyatlarini tizimi bilan bog'liq holda shakllanishini asoslaydi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda o'qituvchilarning kasbiy etikasi va uning shakllanish darajalarini aniqlash jarayoni ilmiy-pedagogik yondashuvlar asosida amalga oshirildi. Tadqiqotning nazariy asosini pedagogik etika, kasbiy madaniyat va shaxs rivojlanishi haqidagi ilmiy konsepsiyalar tashkil etdi.

Tadqiqot davomida kuzatish, qiyosiy tahlil, pedagogik suhbat, anketa so'rovnomasi va diagnostik baholash metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar o'qituvchilarning real pedagogik faoliyatida axloqiy qaror qabul qilish, muloqot madaniyati va kasbiy mas'uliyat darajasini aniqlash imkonini berdi.

Shuningdek, olingan ma'lumotlar sifat (qualitative) va qisman miqdoriy (quantitative) tahlil asosida qayta ishlanib, kasbiy etikaning boshlang'ich, o'rta va yuqori darajalari bo'yicha tasniflash amalga oshirildi.

Tadqiqotda tizimli va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida kasbiy etikaning funksional komponentlari (axloqiy ong, empatiya, pedagogik xulq-atvor, kasbiy mas'uliyat va o'z-o'zini rivojlantirish) alohida baholandi.

Natijalar. O'qituvchi "So'z aytishdan avval, har daqiqada so'z ortidan keladigan oqibatlarini o'ylashi" kerak. Alisher Navoiy adabiy meroslarida muomala madaniyati, xushmuomalalik, tilning ahamiyati to'g'risida, shirinso'zlik haqida noyob fikrlarni bayon qilgan. Bugungi kunda ham bu fikrlar o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. "Til shirinligi- ko'ngilga yoqimlidir, muloyimligi esa, foydali. Shirin so'z sof ko'ngillar uchun asal kabi totlidir", - deydi Alisher Navoiy.

Pedagogik-psixologik muloqot - bu o'qituvchining kasbiy etika doirasidan tashqariga chiqmagan holda talabalar bilan darsda va darsdan tashqari faoliyatda eng qulay psixologik muhitni vujudga keltirib, ijobiy ruhiy iqlimni yaratishi uchun imkoniyat beruvchi kasbiy munosabatdir. O'qituvchi ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni talabalar bilan birgalikda tashkil etadi. Bunda guruhning faol talabalari hamda norasmiy liderlari bilan o'zaro muloqotning adolatli bo'lishi muhim ahamiyatga ega: o'quvchilarni tarbiyaning turli elementlarini ongli ravishda mustaqil bajarishga jalb etish, bunda talabalarga tashkilotchilik va ijro etish ro'llarini bajarishga imkoniyat yaratib berish lozim.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari bunday darslarda umuminsoniy qadriyatlarga yo'naltirilganlikdan, muloqotda g'amxo'rlikdan foydalanadi. Agar biz adabiy qahramonlar bilan muloqotga, o'quv materialining mazmuni va tuzilishiga yo'nalishni qo'llasak, bu axloqiy tushunchalar va axloqiy harakatlarning motivatsiyasini shakllantiradi. Bolalar adabiyoti darslarida mavzu mazmuni orqali o'quvchilar kamtarlik, majburiyat, yaxshilik, yomonlik, halollik kabi tushunchalarni o'rganadilar.

Bolalar adabiyoti darslarida pedagogik etikani shakllantirish markazida bolalar jahon klassiklari tarkibidagi adabiy badiiy matnning mazmuni turadi. Bo'lajak o'qituvchilarning turli xalqlarning asarlariga murojaatlari qahramonlar harakatlarining axloqiy qiymatini ko'rsatishga, shaxsning axloqiy madaniyatini boyitishga, dunyoning turli burchaklarida yashovchi odamlarning xatti-harakatlarining o'xshashligini ko'rsatishga imkon beradi. Bolalar adabiyoti kursining bir qismi sifatida matnning o'qish, muallif va o'quvchi, muallif va personajlar o'rtasidagi muloqotni kuzatish, keyingi odam bilan suhbat - bularning barchasi asta-sekin o'zlarining o'ziga xosligi, boshqa fikrlarni qadrlash qobiliyati va o'zlarini baholashga o'rgatadi. Bo'lajak o'qituvchidan asarning madaniy asoslarini (axloqiy, geografik, tarixiy ma'lumotlar bilan tanishish) taqdim etish va bilish talab qilinadi.

Shunday qilib, o'quv materialining mazmuni pedagogik etikani shakllantirishga imkon beradi, ammo uni amalga oshirish uchun o'quv materialini ma'lum bir tarzda tuzish kerak. Ushbu dars tahlilidan ko'rinib turibdiki, 1) o'qituvchi muammoni aniqladi; 2) o'quvchilar bilan birgalikda muammo batafsil bayon qilindi; 3) o'rganilayotgan ishning mazmuni va xalq pedagogikasi materiallari tahlil qilindi.

Bu ish nizomi tashkil etish bilan yakunlandi. Bu yondashuv nima beradi? Bu sizga individuallik mexanizmlaridan, xususan, o'quvchilar faoliyatida harakat qilganda, maqsadlilik, tashabbuskorlik, qat'iyatlilik ko'rsatgan ixtiyoriy sohadan foydalanishga imkon beradi. Shuningdek, motivatsion soha, o'quvchilar bilimlarni, bilish usullarini o'zlashtirganda, o'quv faoliyatida faollik ko'rsatganlarida, adabiyot bilan ishlashda fan-amaliy ko'nikmalar shakllangan, buning natijasida ularda pedagogik etika motivlari va usullari shakllangan bo'ladi: hal qilish, muammo, rejalashtirish.

Kasbiy etika - bu o'qituvchining kasbiy faoliyatidagi axloqiy me'yorlar, qoidalar va tamoyillarning majmuasi bo'lib, o'qituvchi o'z ishida va o'quvchilar bilan muloqotda ularga rioya qiladi. Kasbiy etika o'qituvchining professionalligi, mas'uliyati va ta'lim sifatiga ta'sir qiladi. Pedagogik etika va kasbiy etikaning alohida farqlanishi bor, chunki pedagogik etika o'qituvchining umumiy axloqiy qadriyatlar tizimidan iborat bo'lsa, kasbiy etika faqat o'qituvchining pedagogik faoliyatini tashkil etishga qaratilgan. Kasbiy etikaning shakllanishi jarayoni o'qituvchining axloqiy-etik qadriyatlarini o'zlashtirishi, amaliyotda qo'llashi, o'z faoliyatida va shaxsiy hayotida axloqiy me'yorlarga rioya qilishini talab qiladi. Kasbiy etikaning shakllanishi nafaqat individual omil, balki ta'lim muassasasi, jamiyat va ta'lim tizimining umumiy me'yorlariga ham bog'liqdir.

Kasbiy etikaning shakllanishi o'qituvchining pedagogik faoliyatida bosqichma-bosqich rivojlanadigan murakkab jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon o'qituvchining axloqiy bilimlarni o'zlashtirishi, ularni amaliyotda qo'llashi hamda kasbiy faoliyatda mustaqil axloqiy qarorlar qabul qila olish darajasi bilan belgilanadi. Kasbiy etika rivojlanishining har bir bosqichi o'qituvchining pedagogik kompetensiyasi va shaxsiy axloqiy madaniyati bilan uzviy bog'liqdir.

Dastlabki bosqichda o'qituvchi kasbiy etikaning asosiy tamoyillarini o'rganadi va ularni amaliyotda qo'llash bo'yicha boshlang'ich tushunchalarga ega bo'ladi. Keyingi bosqichda esa u ushbu tamoyillarni real pedagogik vaziyatlarda qo'llay boshlaydi va axloqiy qarorlar qabul qilish tajribasini shakllantiradi. Eng yuqori bosqichda esa o'qituvchi kasbiy etikaning barcha tamoyillarini chuqur anglab, ularni professional faoliyatda integratsiyalashgan holda qo'llaydi.

Kasbiy etikaning shakllanish darajalarini baholashda bir qator funksional komponentlar muhim o'rin tutadi. Ular o'qituvchining axloqiy ong darajasi, pedagogik xulq-atvori, empatiya va xolislik qobiliyati, o'z-o'zini rivojlantirishga intilishi hamda kasbiy mas'uliyat hissini o'z ichiga oladi. Ushbu komponentlar o'qituvchining kasbiy etika darajasini kompleks baholash imkonini beradi.

Bundan tashqari, pedagogik etika o'qituvchining kasbiy faoliyatida asosiy yo'nalishlarni belgilovchi tizim sifatida xizmat qiladi. U etik me'yorlar, shaxsiy axloqiy fazilatlar hamda kasbiy kompetensiyani o'z ichiga oladi va o'qituvchining ta'lim jarayonidagi xatti-harakatlarini tartibga soladi.

Kasbiy etikaning shakllanishi o'qituvchining pedagogik faoliyatida bosqichma-bosqich rivojlanadigan murakkab jarayon bo'lib, u o'qituvchining axloqiy bilimlari, amaliy tajribasi va shaxsiy mas'uliyat

hissi bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu jarayon davomida o'qituvchi kasbiy etika tamoyillarini dastlab o'zlashtiradi, keyinchalik ularni amaliyotda qo'llaydi va eng yuqori bosqichda esa ularni to'liq integratsiyalashgan holda pedagogik faoliyatga tatbiq etadi.

Kasbiy etikaning shakllanish darajasini aniqlashda bir qator funksional komponentlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ular o'qituvchining

axloqiy ong darajasi, pedagogik xulq-atvori, empatiya va xolislik qobiliyati, o'z-o'zini rivojlantirishga intilishi hamda kasbiy mas'uliyat hissini o'z ichiga oladi. Ushbu komponentlar o'qituvchining kasbiy etika darajasini kompleks baholash imkonini beradi.

Kasbiy etikaning shakllanish darajalari

Daraja	Mazmuni
Boshlang'ich daraja	O'qituvchi kasbiy etikaning asosiy tamoyillarini o'rganadi, ularning mazmuni haqida boshlang'ich tushunchaga ega bo'ladi. Axloqiy burchni anglaydi, lekin amaliy tajriba yetarli emas.
O'rta daraja	Kasbiy etika tamoyillari amaliyotda qo'llanila boshlaydi. O'qituvchi axloqiy qarorlar qabul qiladi, murakkab vaziyatlarda mustaqil tanlov qilish ko'nikmasi shakllanadi.
Yuqori daraja	O'qituvchi kasbiy etikaning barcha tamoyillarini chuqur o'zlashtiradi va ularni integratsiyalashgan holda qo'llaydi. Har bir pedagogik faoliyatda yuqori axloqiy mas'uliyat namoyon bo'ladi.

Ushbu jadvalda o'qituvchining etika rivojlanishidagi bosqichlarni ifodalaydi. Unda boshlang'ich daraja nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilan, o'rta daraja esa amaliy qo'llash bilan tavsiflanadi. Yuqori darajada esa o'qituvchi kasbiy etika tamoyillarini to'liq va integratsiyalashgan holda qo'llay olishi bilan ajralib turadi.

Kasbiy etikaning shakllanish darajasini aniq va ilmiy asosda baholash uchun uning tarkibiy tuzilmasini tashkil etuvchi funksional komponentlarni alohida o'rganish muhim ahamiyatga ega. Ushbu

komponentlar o'qituvchining pedagogik faoliyatidagi axloqiy pozitsiyasi, xulq-atvori va kasbiy mas'uliyatini kompleks tarzda ifodalaydi.

Funksional komponentlar o'qituvchining nafaqat nazariy bilim darajasini, balki amaliy faoliyatdagi axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatini ham aks ettiradi. Shu bois, kasbiy etikaning rivojlanishini baholashda uning ichki (axloqiy ong, empatiya) va tashqi (pedagogik xulq-atvor, kasbiy mas'uliyat) jihatlari birgalikda tahlil qilinadi.

Quyidagi jadvalda kasbiy etikaning asosiy funksional komponentlari va ularning mazmuni yoritib beriladi.

Komponent	Mazmuni
Axloqiy ong	Kasbiy etika tamoyillarini tushunish va ularga ongli ravishda amal qilish darajasi.
Pedagogik xulq-atvor	O'quvchilar va jamiyat oldida axloqiy me'yorlarga asoslangan xatti-harakatlar.
O'z-o'zini rivojlantirish	Kasbiy va axloqiy jihatdan doimiy o'sishga intilish jarayoni.
Empatiya va xolislik	O'quvchilarni tushunish, adolatli va obyektiv munosabat bildirish qobiliyati.
Kasbiy mas'uliyat	Ta'lim sifati va pedagogik faoliyat natijalariga javobgarlik hissi.
Etik me'yorlar	Pedagogik faoliyatni tartibga soluvchi axloqiy qoidalar tizimi.
Shaxsiy fazilatlar	Xushmuomalalik, adolat, halollik kabi individual axloqiy sifatlar.
Kasbiy kompetensiya	Etika tamoyillari asosida samarali pedagogik faoliyat yuritish qobiliyati.

Jadvalda keltirilgan funksional komponentlar kasbiy etikaning shakllanish jarayonini tizimli baholash imkonini beruvchi asosiy mezonlar hisoblanadi. Ular o'qituvchining axloqiy va kasbiy rivojlanishini bir butun tizim sifatida tahlil qilishga xizmat qiladi.

Xususan, axloqiy ong komponenti o'qituvchining kasbiy etika tamoyillarini anglash va ularga ongli ravishda amal qilish darajasini belgilaydi. Pedagogik xulq-atvor esa ushbu tamoyillarning amaliy faoliyatda qanday namoyon bo'lishini ko'rsatadi. O'z-o'zini rivojlantirish komponenti o'qituvchining doimiy kasbiy o'sishga intilishini ifodalasa, empatiya va xolislik o'quvchilarga nisbatan adolatli va tushunuvchan munosabatni shakllantiradi.

Shuningdek, kasbiy mas'uliyat o'qituvchining ta'lim sifati va natijalariga bo'lgan javobgarligini aks ettiradi. Etik me'yorlar pedagogik faoliyatni tartibga soluvchi umumiy qoidalar tizimi bo'lib, o'qituvchining xatti-harakatlarini yo'naltiradi. Shaxsiy fazilatlar esa uning individual axloqiy sifatlarini ifodalaydi. Nihoyat, kasbiy kompetensiya barcha komponentlarni birlashtirgan holda o'qituvchining kasbiy etika asosida samarali pedagogik faoliyat yurita olish qobiliyatini belgilaydi.

Ushbu komponentlar o'qituvchining kasbiy etika darajasini kompleks baholashga va uning pedagogik faoliyatdagi axloqiy yetukligini aniqlashga xizmat qiladi.

Muhokama. Kasbiy etika o'qituvchi faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u ta'lim jarayonining sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot natijalariga tayangan holda aytish mumkinki, kasbiy etikaning shakllanishi bir martalik hodisa emas, balki uzluksiz va bosqichma-bosqich rivojlanadigan jarayondir. Bu jarayonda o'qituvchining shaxsiy tajribasi, kasbiy tayyorgarligi hamda ta'lim muassasasi muhiti muhim rol o'ynaydi.

Olingan natijalar kasbiy etikaning rivojlanishida funksional komponentlarning o'zaro bog'liqligi mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, axloqiy ong darajasi yuqori bo'lgan o'qituvchilarda pedagogik xulq-atvor ham barqaror va mas'uliyatli bo'lishi kuzatiladi. Aksincha, empatiya va o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmagan hollarda kasbiy etika darajasi ham past bo'lishi mumkin.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, o'qituvchining kasbiy etikasini rivojlantirishda refleksiya va amaliy tajriba hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'qituvchi o'z faoliyatini muntazam tahlil qilib borishi uning axloqiy qaror qabul qilish madaniyatini takomillashtiradi va kasbiy yetuklik darajasini oshiradi.

Pedagogik etika esa kasbiy etikaning nazariy va amaliy asosini tashkil etadi. U o'qituvchining o'quvchilar, hamkasblar va jamiyat bilan bo'lgan munosabatlarini tartibga soluvchi axloqiy me'yorlar tizimi sifatida

namoyon bo'ladi. Shu jihatdan, pedagogik etika kasbiy etikaning shakllanishida yo'naltiruvchi omil vazifasini bajaradi.

Kasbiy etikaning shakllanish darajasini oshirish uchun o'qituvchilarda axloqiy ongni rivojlantirish, empatiya ko'nikmalarini shakllantirish hamda uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini yo'lga qo'yish zarur. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kasbiy etikaning shakllanish darajalarini baholashda o'qituvchining axloqiy qarorlarini qabul qilishda ko'rsatgan mas'uliyatini, muloqot madaniyatini va pedagogik xulq-atvorini tahlil qilish kerak. Shuningdek, o'qituvchining kasbiy rivojlanish yo'llari, uning o'z-o'zini baholash jarayoni va doimiy o'qish, treninglar orqali etikaning yangi tamoyillarini o'zlashtirishi ham e'tiborga olinadi.

Xulosa. O'qituvchilarning pedagogik-etik faoliyati jarayonida kasbiy etikaning shakllanishi o'qituvchining ta'lim jarayonidagi samaradorligini va uning shaxsiy rivojlanishini belgilaydi. Kasbiy etikaning shakllanish darajasini aniqlash va uning funksional komponentlarini o'rganish o'qituvchilarni professional jihatdan rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilarni kasbiy etika tamoyillari asosida yaxshilab tayyorlash ta'lim sifatining oshishiga va o'quvchilarning ma'naviy rivojlanishiga yordam beradi. Umumamalganda, o'qituvchilarning kasbiy etikasini shakllantirish va rivojlantirish ta'lim tizimining sifatini belgilovchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kasbiy etika o'qituvchining faqat kasbiy faoliyatdagi xulq-atvorini emas, balki uning shaxsiy dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlarini va ijtimoiy mas'uliyatini ham qamrab oladi. Kasbiy etikaning shakllanish jarayoni murakkab va ko'p bosqichli bo'lib, u o'qituvchining nazariy bilimlari, amaliy tajribasi hamda reflektiv faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Ayniqsa, axloqiy ong, empatiya, kasbiy mas'uliyat va o'z-o'zini rivojlantirish kabi komponentlar ushbu jarayonning barqarorligini ta'minlaydi. Shuningdek, kasbiy etikaning rivojlanishida ta'lim muassasasi muhiti, pedagogik jamoa madaniyati hamda uzluksiz malaka oshirish tizimi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi o'z ustida doimiy ishlab, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni o'zlashtirishi va axloqiy me'yorlarga rioya qilishi orqali yuqori kasbiy etika darajasiga erishishi mumkin. Shu bilan birga, kasbiy etika nafaqat individual, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega bo'lib, u o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Axloqiy jihatdan yetuk o'qituvchi jamiyatda ijobiy pedagogik muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, kasbiy etikaning samarali shakllanishi o'qituvchining pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish hamda barkamol avlodni tarbiyalashning muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi. Ta'lim to'g'risidagi Qonun. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2019.
3. Slavenin V. A., Isaev I. F., Shiyanov E. N. Pedagogika. – Moskva: Akademiya, 2018. – 576 b.
4. Carr D. Professionalism and Ethics in Teaching. – London: Routledge, 2000. – 275 p.
5. Abdullayeva G. B. Tarbiyachining kasb etikasi // Scientific Aspects and Trends in the Field of Scientific Research. – 2023. – №8. – B. 45–49.
6. Umarova F. O'qituvchi faoliyatida kasbiy madaniyatning o'rni // Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. – 2025. – №8. – B. 112–116.
7. Obidova S. A., Abdullayeva N. J. Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik etikani shakllantirishning nazariy asoslari // Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2025. – №1. – B. 88–93.
8. Kutlimuratov A. R. Pedagogik faoliyatda axloqiy qadriyatlar va etika muammolari // Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2024. – №2. – B. 101–106.
9. Toshova Z. K. Pedagog kasbiy etikasining tarixiy shakllanish bosqichlari va zamonaviy talqini // Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari. – 2025. – №2. – B. 55–60.
10. Hasanboeva O., Yo'ldoshev J. Pedagogik etika va mahorat asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2021. – 312 b.
11. Normatov A. X. Kasbiy pedagogik madaniyatning shakllanishi. – Samarqand: Registon, 2023. – 240 b.
12. UNESCO. Teacher Professional Development Guidelines. – Paris, 2015.
13. OECD. Teachers Matter: Attracting, Developing and Retaining Effective Teachers. – Paris, 2011.